



Ichki qoida

“Turonbank” ATB Kengashining

2025-yil “21” may dagi
21-32 ”- son qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Turonbank” ATB Boshqaruvining

2025-yil “19” may dagi
19/2 ”- son qarori bilan

“MA’QULLANGAN”

“Ro‘yxatga olindi” №1222-2

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING
KREDIT TA’MINOTI SIYOSATIGA KIRITILAYOTGAN
2-SON O’ZGARTIRISH VA QO’SIMCHALAR**

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Garov to‘g‘risida”, “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-ton bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida Nizom”, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Ustaviga muvofiq “Turonbank” ATB Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi K-84/8-ton qarori bilan tasdiqlangan ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining Kredit ta‘minoti Siyosati”ga quyidagi **2-sonli o‘zgartirish va qo‘srimchalar** kiritilsin:

1. Ushbu Siyosatning **12-bandı** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“**12.** Kredit ta‘minotiga turar joy garovga qo‘yilayotgan bo‘lsa, u holda ushbu garovga qo‘yilayotgan turar joyda hech kim ro‘yxatda turmasligi o‘rganilishi lozim hamda kredit muddati davomida Bosh bank ruxsatsiz turar joyga fuqarolar ro‘yxatga olinmasligi, qo‘srimcha qurilish yoki o‘zgartirish kiritilmasligi lozim (ipoteka kreditlaridan tashqari).”

2. Mazkur Siyosatning **32-band f) kichik bandı** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“**f.** O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijob qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan fuqarolarning yashashi uchun zarur bo‘lgan uy-jihozlari, shuningdek, tez buziladigan mahsulotlar.”

3. Mazkur Siyosatning **33-bandı** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“**33.** Kredit ta‘minoti miqdori kredit summasining kamida 125 foizini, uchinchi shaxslarning mulki garovga olingan holda ajratilgan kreditlar ta‘minoti miqdori kredit summasining kamida 130 foizini, xorijiy valyutada ajratilgan kreditlarning ta‘minoti kamida 130 foizni tashkil etishi lozim. (Bankka aloqador shaxsga yoki uning nomidan faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsga kredit ajratilganda “Bir qarz oluvchi, o‘zaro qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori to‘g‘risida”gi Nizomda (ro‘yxat raqami 3283, 2020-yil 29-oktyabr) belgilangan tartib qo‘llaniladi.”

4. Ushbu Siyosatning **35-bandı** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“**35.** Kreditlar bo‘yicha garovga olinayotgan mulkning turiga qarab uning bank tomonidan qabul qilinadigan bahosi mustaqil baholash tashkiloti tomonidan aniqlangan bozor bahosiga nisbati quyidagicha tasniflanadi:

Garov turi	Garov tavsifi	Baholangan summaga nisbati
Kafolatlar	O‘zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati	100%
	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kafolat xati yoki kafolati	100%
	Birinchi darajali xorijiy bank kafolati	100%
Kafilliklar	Davlat jamg‘armalarining kafilligi	100%
Qarz qimmatli qog‘ozlari	O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari	100%
Ulushli qimmatli qog‘ozlar	Davlat moliyaviy tashkilotlari aksiyalari	100%
	Davlat tashkilotlari aksiyalari	100%
Xorijiy valyutadagi mablag‘lar	Erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi muddatli/jamg‘arma omonatlar shu valyutadagi kreditlar uchun	100%
	Erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi muddatli/jamg‘arma omonatlar boshqa valyutadagi kreditlar uchun	90%
Milliy valyutadagi pul mablag‘lari	Milliy valyutadagi muddatli/jamg‘arma omonatlar milliy valyutadagi kreditlar uchun	100%
	Milliy valyutadagi muddatli/jamg‘arma omonatlar xorijiy valyutadagi kreditlar uchun	90%
Qimmatbaho metallar	Standartlashtirilgan qimmatbaho metall quyma (tilla, kumush va h.k.)	95%

Bino	Zavod binosi	70%
	Xizmat-ma'muriy bino (Ofis)	80%
	Savdo binosi	80%
	Qishloq xo'jaligi obyekti	70%
	Ko'p qavatli uy	80%
	Xususiy uy	80%
	Podval/yerto'la	50%
	Avtoyoqilg'i quyish shoxobchasi	80%
	Qurilishi tugallanmagan bino	50%
	Garaj	70%
	Ombor	70%
	Muzlatgich ombori	60%
	Issiqxona kompleksi	60%
	Transformator podstansiyasi	40%
Yer	Yerga doimiy egalikva mulk huquqi	80%
	Karyerlar, konlar, qurilish va qishloq xo'jaligi uchun yerga egalik huquqi	40%
	Uzoq muddatli ijara huquqi	40%
Uskuna	Ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshmagan texnologik uskunalar (dastgohlar, qurilmalar, texnologik liniyalar hamda o'zi yurmaydigan qishloq xo'jalik texnikasi (tirkamalar))	50%
Tovar moddiy zaxiralar	Iste'mol qilinmaydigan muomaladagi (oborotdag) tovarlar – 24 oygacha muddatga ajratiladigan kreditlarning 50 foizidan oshmagan qiymatda garovga olish	50%

Mol-mulklar turi	Baholangan summaga nisbati	
	3 yilgacha muddatga ajratilgan kreditlar uchun	3 yildan yuqori muddatga ajratilgan kreditlar uchun
Avtotransport vositalari holatidan kelib chiqib:		
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshmagan bo'lsa	80% gacha	70% gacha
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshgan 4 yildan oshmagan bo'lsa	70% gacha	60% gacha
Ishlab chiqarilganiga 4 yildan oshgan 6 yildan oshmagan bo'lsa	60% gacha	50% gacha
Ishlab chiqarilganiga 6 yildan oshgan 8 yildan oshmagan bo'lsa	40% gacha	-
Maxsus va qurilish texnikalar, qishloq xo'jaligi mashinalari holatidan kelib chiqib:		
Ishlab chiqarilganiga 3 yildan oshmagan bo'lsa	70% gacha	60% gacha
Ishlab chiqarilganiga 3 yildan oshgan 6 yildan oshmagan bo'lsa	50% gacha	40% gacha
Ishlab chiqarilganiga 6 yildan oshgan 9 yildan oshmagan bo'lsa	30% gacha	

Yuqoridagi garovga qo'yilgan talablar kredit mahsulotlari bo'yicha kredit mahsulotlari pasportida ko'rsatilgan me'yorlar asosida belgilanadi

Ayrim hollarda Bank Boshqaruvi qarori asosida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning garov ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan mulklari (korxonalar, zavod va fabrikalar ishlab chiqarish bino inshootlari, uskunalar, kommunikatsiyalar va boshqa moddiy aktivlari bilan birgalikda ishlab chiqarilgan yilidan qat'iy nazar) mulkiy kompleks sifatida mustaqil baholash hisobotida aniqlangan bozor qiymatining 70 foizigacha bo'lgan qiymatda garovga olinishiga hamda Korporativ mijozlarga ajratiladigan kreditlar uchun yuqoridagi keltirilgan jadvaldagi belgilangan talablar istisno tariqasida o'zgartirilishiga ruxsat etiladi."

5. Mazkur Siyosatning 39-band f- kichik bandi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

f) garovga olinishi (garovda qolishi) ko'zda tutilgan turar joyning bank mutaxassislari tomonidan ushbu turar joyda hech kim ro'yxatda turmasligi;

6. Ushbu Siyosatning 54-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"**54.** Kredit ta'minotini baholash jarayonida garovga beriladigan mol-mulklar qiymati yuzasidan mustaqil baholash tashkilotining baholash hisoboti olinishi lozim. Elektron baholash dasturi orqali garov qiymatini aniqlash yuzasidan olingan ma'lumotnomasi asosida garov qiymati aniqlanishi belgilangan kredit mahsulotlarida baholash hisoboti talab qilinmaydi."

7. Mazkur Siyosatning 56-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"**56.** Mustaqil baholash tashkilotiga nisbatan qo'yiladigan talablar:

a) Baholash bo'yicha faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi mavjud bo'lishi;

b) Baholovchi tashkilotlar assosiatsiyasining a'zoligini tasdiqlash haqidagi sertifikati mavjud bo'lishi;

c) Baholovchining professional javobgarligini sug'urtalash polisi mavjud bo'lishi;

d) Baholovchining malaka sertifikati mavjud bo'lishi."

8. Ushbu Siyosatning 59-band e) kichik bandi bilan to'ldirilsin:

"e) mustaqil baholash tashkiloti 56-band talablariga javob bermaganda."

9. Mazkur Siyosatning 60-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"**60.** Baholash hisoboti kreditlash jarayonida foydali instrument bo'lishi lozim. Mulkning bozor qiymati 3 ta usul asosida aniqlanadi:

a) xarajat usuli;

b) solishtirish usuli;

c) daromad usuli.

Ipoteqa (uy-joy sotib olish)ni kreditlashda hamda kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan garov mulklari jismoniy shaxsga tegishli turar joy yoki avtotransport vositalari bo'lgan holatlarda daromad usulini, bank buyurtmasiga asosan elektron tizim orqali olinadigan baholash hisobotidan foydalanganda daromad va xarajat usulini qo'llash talab etilmaydi. Shuningdek, asbob-uskunalar yoki ayrim transport vositalari va maxsus texnikalarning bozor bahosini aniqlashda hisobotda yuqoridagi usullardan birontasi qo'llanilmagan taqdirda, qo'llanilmaganlik sababi asoslantirilgan bo'lishi lozim."

Kiritildi:

**Korporativ biznes
departamenti direktori**



A.N.Muradov

**Monitoring va nazorat
departamenti direktori**



S.R.Jumaniyozov

**Kichik va o'rta biznes
departamenti direktori**

A.A.Muazzamov

**Chakana biznes
departamenti direktori**



A.K.Talipov

Ekspert guruhi bilan kelishildi:

**Guruh rahbari, Boshqaruv
Raisining birinchi o'rinnbosari v.b.**

*Ekspert guruhi a'zolari:
Boshqaruv Raisi o'rinnbosari v.b.*

Bank yuridik xizmati boshlig'i

Komplaens nazorat departamenti direktori v.b.

**Xodimlarni boshqarish (HR)
departamenti direktori**

Loyihalarni boshqarish ofisi rahbari

Risk masalalari direktori

**Muammoli aktivlar bilan
ishlash departamenti direktori**

**Bosh buxgalter — Buxgalteriya hisobi
departamenti direktori**

**Moliya bozorlaridagi operatsiyalar
departamenti direktori v.v.b.**

**Filial tarmoqlarini boshqarish
departamenti direktori**

**Axborot texnologiyalari
departamenti direktori**

Operatsion departamenti direktori

**Mijozlar servisi va marketing
departamenti direktori**

Strategiya bo'yicha rahbar

**Metodologiya ishlarini muvofiqlashtirish
boshqarmasi boshlig'i**

S.T. Kaldibayev

T.X. Axmedov

Sh.A. Nurnazarov

O.I. Tangirov

N.I. Tangniberdiyev

F.A. Ismailov

D.K. Ibragimova

Z.N. Boboyev

Sh.E. Bozorov

F.R. Hakimov

T.Y. Kodirov

Z.Ya. Ibragimov

D.M. Nazarova

F.A. Ruzikulova

A.S. Sherov

M.J. Mo'minov

**““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining Kredit ta’minoti Siyosati”ga kiritilayotgan
2-sonli o‘zgartirish va qo‘srimchalar loyihasini huquqiy ekspertiza o‘tkazish yuzasidan
X U L O S A**

2025-yil 16-may

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi 2733-sun qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi Nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-sun bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomning 3.1. va 3.3.-bandlariga muvofiq, ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining Kredit ta’minoti Siyosati”ga kiritilayotgan 2-sonli o‘zgartirish va qo‘srimchalar huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda quyidagilar

A N I Q L A N D I :

Taqdim etilgan Siyosatga 2-sonli o‘zgartirish va qo‘srimchalar loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Garov to‘g‘risida”, “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-sun bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom”, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Siyosatning **II bob, 33, 35, 54, 56, 59, 60-bandlariga tegishlichcha o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgan.**

“Turonbank” ATB Monitoring va nazorat departamenti tomonidan ishlab chiqilgan ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining Kredit ta’minoti Siyosati”ga kiritilayotgan 2-sonli o‘zgartirish va qo‘srimchalar qonunchilik hujjatlariga zid emas.

Yuqoridagilarga ko‘ra, Siyosat loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

X U L O S A Q I L I N D I :

““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining Kredit ta’minoti Siyosati”ga kiritilayotgan 2-sonli o‘zgartirish va qo‘srimchalar yuqoridagi qonunchilik asosida ishlab chiqilganligi va boshqa qonunchilik hujjatlariga zid emasligi, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi qayd etilsin.

Mazkur loyiha ko‘rib chiqish uchun Ekspert guruhi muhokamasiga taqdim etilsin.

Bank yuridik xizmati yuristi

D.Valiyev